

BUNING NOMI - XUSNI XULQ

Yigitaliyeva Shirinoy

Namangan viloyati madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

Tarbiyaning ikki qismi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal ahloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan asraydigan xushyorlik. Bolani to'kin sochinlikda, qimmatbaho kiyimlar kiyib o'sgan bolalardan, bunday dabdabali hayotga rag'bat uyg'otadiganlar davrasiga aralashib qolishdan asrash kerak. Chunki voyaga yetayotgan bola etiborsiz tashlab qo'yilsa, ko'p hollarda bu ahloqning tubanlashuviga sabab boladi. Natijada, bola ulg'aygach, kazzob, xasadgo'y, o'g'ri, chaqimchi, qaysar, mahmadona, yengiltak, makkor, behayo, yaramas bir kimsaga aylanib qolishi mumkin.

Bulardan saqlanishning birdan - bir yo'li chiroyli tarbiya, keyin maktabda dars berish bilan mashg'ul bo'lmoq. Qachonki bolada chiroyli xulq, maqtovg'a arzigulik bir fe'l sodir bolsa, uni xurmat bilan sharaflamoq, ko'nglini quvontiradigan narsa bilan taqdirlamoq, ko'pchilik orasida bu feline izhor etmoq zarur. Ba'zi holatlarda bir marta bu fe'lga xilof ish qilib qo'ysa, ayniqsa bola bu ishni yashirishga harakat qilsa, uni ko'rmaganga olish foydaliroq. Chunki bola bunday holda aybidan ortiqroq jazoga tortilib qolsa, jazo aks tasir etishi, aybini ochilib qolishiga o'rganib, xatodan qo'rqmaydigan bo'lib qolishi ehtimol.

Bola tarbiyasida otaning qat'iyati, so'zidan qo'rqmasligi muhim ahamiyatga ega. U o'zining bu tabiatini farzandiga doimo sezdirib turishi zarur. Ona ham o'z navbatida otaning aynan shu xususiyatlarini bolaning yodiga solib turishi, shu tarzda farzandini yomonliklardan qaytarib turishi lozim.

Qalbimiz azob cheksada, bir haqiqatdan ko'z yummasligimiz, bu xususidagi to'g'ri gapni ichimizga yutmasligimiz kerak. Bolani dag'al so'kinib gapiradigan og'zi shaloq kishilarga aralashib qolishidan asrash tarbiyasining asosi hisoblanadi. Lekin afsuski, atrofimizda yomon xulqli ota onalar ham yo'q emas. Tilidan so'kish tushmaydigan ota - onalar, qarg'ishdan tinmaydigan shallaqi onalar, aroqxo'rlar, g'iybatchilar tekinxo'rlar... Xo'sh bu odamlar farzandiga qanday tarbiya beradilar? Bunday xonadonning farzandi yaxshi xulqli oilada tarbiya ko'rgan bolaga qanday tasir ko'rsatadi? Bazan mayxo'r ota-onalarni ota - onalik xuquqidan maxrum qilishadi, aslida odamlilik xuquqidan o'zlarini mahrum qilgan bu kimsalarga sud xukmi nima ekan? Ota-onalik xuquqidan mahrum bo'lgan bu kimsalarga sud xukmi nima ekan? Ota-onalik xuquqidan mahrum bo'lgach bularning qanchasi tavba qilib, yaxshi yo'lga o'tgan ekan? hech qancha!

Maktabni "ilm va odob maskani" deymiz, farzandlarimiz maktabdan ko'p yaxshi narsalarni o'rganadilar. Shuning barobarida uyda so'kishni o'rganmagan bola maktabda maktabdagi tengdoshlaridan qo'pollikni o'rganadi. Sinfda 25-30 bola, o'qituvchi esa bitta. Hamma bolaga bir hilda saboq bera olmaydi, har bir bolaning hush xulqi yoki bad hulqini nazoratda tutishi mushkul.

Bir maktabda o'qituvchi sinfga kirsam, qaysidir bad xulqli qora taxtaga oq bo'r bilan ahloqsiz rasmni chizib, bexayo so'zlarni yozib qo'yibdi. Buni ko'rgan muallimning rangi o'zgardi, lablari titradi. Bunday xollarda ko'pchilik "bu kimning

qilig'i"deb baqirib, bollarga taxdid qila boshlaydi. Bu muallim esa g'azablanganini shogirdlariga sezdimadi. Chunki u go'zal hulq egasi edi, go'zal hulq esa qahr g'azab kelganda bilinadi. Muallim indamaygina qo'lga lattani olib, taxtani artib qo'ydi. Nimadir o'ylanganday u yoqdan bu yoqqa yurdi, so'ng dedi:

---Bolalar, uzoqni ko'ra oladigan bo'linglar... ha uzoqni ko'ra oladigan bo'linglar! faqatgina xozirgi kunni xozirgi mavsumni va yilni o'ylamanglar. Hech bo'lmasa, hayolan besh o'n yil keyingi hayotga sayohat qilinglar. Bugun shunday narsalar yozing, chizing va gapirinki, kelajakda o'g'il va qizingizga or-nomus darsi berganingizda yuzingiz qizarmasin.. bugun shunday yashanki, ertaga umr yoldoshingiz yuziga uyalmay qaray oling va o'zingizga o'zingiz: "Bu hammani nazar pisand qilmay, yechib almashtirib ketsa bo'laveradigan poyabzal dep o'ylayaptiku" demang.

Bu hikmatga yo'g'rilgan gaplarni shogirdlariga qanchalik tasir qilganini tasavvur etavering. Ha kishi yoshlik chog'ida fazilat egallash uchun zahmat cheksa, qariganida fazilatning o'zi unga hizmat qiladi. Afsuski hozirgi darsliklarda go'zal hulq sohibi bo'lish yo'llari haqida ma'lumot kam. Muallimlaraytaylik adabiyot darsida yozuvchining tarjimai holiga ko'proq ahamiyat beradilar. U yozgan kitobni o'qimaganliklari tufayli asardan olinishi lozim bo'lgan mavzuni chetlab o'tishga harakat qiladilar. Bolaga yozuvchining qachon va qayerda tug'ilgani shart emas. Aksincha adib yozgan asarlar o'quvchining dunyoni anglashiga qanchalik hizmat qiladi, uni o'qigan odamning manaviy olami qanchalik boyiydi – shuni bilish muhimroq. Bola adabiyot darsida badiiy adabiyotni tushinishi, fikrlash va tahlil qilishni o'rganishi shart. bu fazilatlarisiz go'zal hulqqa erishish qiyin. Insonni tirikchilik uchun harakati so'nmagani kabi go'zal xulq egallashga bo'lgan intilishi to'xtamasligi shart. Sharaflil hadisda "beshikdan to lahatga qadar ilm egallang" deyilishini xulq egallashga nisbatan ham anglasak bo'ladi. Odamni Yoshi ulg'ayib, hayot tajribalariga ega bo'lgandan so'ng ham bu intilishni to'xtatmasligi kerak. Bu yoshda uning masuliyati ikki hissa ortadi. birinchidan u zurriyotlarini va atrofdagi boshqa yoshlarni tarbiya qilishi shart. Ikkinchidan o'zini ozi tarbiyalashni davom ettirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Moziydan sado" – ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 2022-2023-yillar sonlari.
2. "Farg'ona vodiysida muzey ishi va faoliyati" I. Yusupov, I. Karimov. 2022-yil, O'zbekiston Respublikasi. Madaniy meros agentligi.
3. "Moziy soboqlari" – Alijon Azizov. Namangan- 2021-yil.
4. "San'at" jurnali- 2013-yil.
5. "Guliston" – ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma'rifiy jurnal. 2021-2022-yil.